

KOREYS TILIDA HURMAT KATEGORIYASI

Mahamqulova Ruhshona Rustam qizi

Sharq tillari fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish:koreys tili

yo'nalishi talabasi

[*rukhshonamahamqulova@gmail.com*](mailto:rukhshonamahamqulova@gmail.com)

+998-94-012-54-62

Annotatsiya: Ushbu maqolada koreys tili grammatikasida eng asosiy birlik bo'lib kelayotgan hurmat kategoriyasi va ularning tematik tasnifi haqida ma'lumot keltirilgan. Hurmat kategoriyasi orqali koreys tilida so'zlovchi suhbatdoshining yoshi, ijtimoiy mavqei, qarindoshlik darajasi yoki yaqinlik darajasiga qarab nutq uslubini tanlay oladi.

Kirish so'zlar: kategoriya, tinglovchi, so'zlovchi, hurmat, grammatik tizim

Zamonaviy koreyslar ilg'or bolishiga qaramay, ko'pchilik hurmat an'analar va konfutsiy qadriyatlariga sodiqdir. Koreys madaniyati va urf-odatlarida, chuqur oilaviy qadriyatlar va keksalarga, mansablar, ijtimoiy mavqei, shu jumladan ota-onalar, o'qituvchilar, aka-uka, qariyalarni yosh avlodlar e'zozlab gapirishi ildiz otgan hisoblanadi. Muloqot chog'ida koreyslar so'zlovchi, tinglovchi va gapning egasi o'rtasidagi munosabatni aniqlaydilar va mos ravishda hurmat kategoriyasi qoidalaridan foydalangan holda shaxslararo munosabatlarni va yordamida ijtimoiy tartibni saqlaydilar. Shuning uchun shuni aytish mumkinki, xushmuomalalik koreys tilini o'rganishning muhim elementidir. Koreys tili o'rganuvchilari ravon muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishlari uchun xushmuomalalik qoidalarini o'rganishlari kerakligi shundandir.

Hurmat kategoriyasi koreys tilida turli xil yo'llar orqali yasay olishimiz mumkin.

Rasmiy shakl orqali

Odatda kattalarga, o'qituvchiga, rahbarlarga yoki. rasmiy muhitda ishlatiladi.

U grammatikada emas, balki ba'zi maxsus fe'llar orqali amalga oshiriladi, Bular obyektни hurmat qilishda ishlatiladigan kamtarlik fe'llaridir.

Masalan: 먹다 (yemoq) → 드시다 / 잡수시다

있다 (bor bo'lmoq) → 계시다

말하다 (gapirmoq) → 말씀하시다

Egani hurmat qilish orqali

Bu usul asosan -시- qo'shimchasi orqali yasaladi. Bu qo'shimcha fe'l yoki sifatga

qo'shilib, egani hurmat qilish uchun ishlatiladi. Qachonki, gapiruvchi o'zini emas, balki egani yuksaltirishni istasa yok gapning egasi hurmatga loyiq shaxs bo'lsa (odatda, ota-ona, ustoz, mijoz...)

Masalan: 가. 김 선생님께서는 언제 오시겠습니까?

나. 이 일은 선생님께서 하시지요.

Ammo, tinglovchining mavqei ulug' bo'lganda, harakat subyektі so'zlovchidan nufuzli bo'lsa ham, so'zlovchi unga-(으)시-qo'shimchasini qo'shmaydi.

예: 할아버지, 아버지가 아직 회사에서 안 왔습니다. (o)

할아버지, 아버지께서 아직 회사에서 안 오셨습니다. (x)

-습니다/-브니다 qo'shimchalari

Hurmatning rasmiy uslubi asosan marosimlarda so'zlanadigan nutq va ma'ruzalar, shuningdek, rasmiy uchrashuvlarda yoki ish yuzasidan bo'ladigan muloqotlarda qo'llaniladi. Gapda -습니다/-브니다 qo'shimchalari yordamida kesim hosil qilinadi. Bu hurmatning eng yuqori darajasi bo'lib, rasmiy suhbatlarda tinglovchiga nisbatan ehtiromni bildiradi. Agar ikki kishi birinchi marta uchrashayotgan bo'lsa, suhbatdoshning lavozimi qanday bo'lishidan qat'i nazar, yoshi katta inson bilan gaplashilganda hurmat shakli ishlatiladi. Hurmatning o'rta darajasi esa so'zlovchi o'zidan katta yoki mavqei balandroq shaxs bilan muloqot qilayotgan holatlarda qo'llanadi. Shu bilan birga, bu shakl ikki yoshi yoki mavqei

jihatdan ulug' insonlar o'rtasidagi suhbatda ham mos keladi. Agar so'zlovchi suhbatdoshidan lavozimi jihatidan yuqori yoki unga yaqin bo'lsa, quyi hurmat shaklidan foydalanish mumkin. Quyi (takallufsiz) shakl, shuningdek, gazeta va jurnallardagi maqolalarda yoki e'lonlarda qo'llanadi. Bu holatda o'quvchiga nisbatan hurmatsizlik emas, balki betaraf va rasmiy munosabat ifodalanadi. Quyidagi misollar bu fikrni yanada yaqqol ko'rsatadi.

Misol: 철수가 내일 학교에 갑니다.

Chol Su ertaga maktabga boradi.

지금 선생님은 밥을 먹고 있어서 우리와 함께 드라마를 볼 수 없습니다.

Hozir o'qituvchimiz ovqatlanayotgani uchun biz bilan kino ko'ra olmaydi.

여행을 잘 다녀오십시오.

Sayohatga yaxshi borib keling.

Xulosa qilib aytganda, koreys tilidagi hurmat kategoriyasi nafaqat grammatik tizimning muhim qismi, balki koreys xalqining milliy mentaliteti va madaniyatini aks ettiruvchi vositadir. Hurmat ifodalovchi shakllar orqali insonlar o'rtasidagi ijtimoiy masofa, yoshi, lavozimi va munosabat darajasi aniq ko'rinadi. Bu esa koreys jamiyatidagi tartib-intizom, o'zaro ehtirom va odob-axloq qadriyatlarining mustahkamligini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Salimova Nigina Baxtiyorovna. Koreys tilida hurmat kategoriyasining ahamiyati va uning xorijlik o'rganuvchilar uchun murakkabligi.
2. 한국어 문법 1-qism
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/koreys-va-ozbek-tillarida-hurmat-manoni-ifodalovchi-maqollarning-qiyosiy-tahlili>
4. <https://www.universalconference.us/universalconference/index.php/crismw/article/download/3021/4262/4280>
5. <https://www.youtube.com/watch?v=T0cxD0uT1bk>